

BADIY ADABIYOTDA AMIR TEMUR OBRAZINING TALQINLARI**Jalilov Shohzod**

FarDU, O'zbek adabiyotshunosligi 2- bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: **A. Qosimov****ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Vatanimiz tarixida munosib o'rinn egallagan buyuk sarkarda, markazlashgan davlat asoschisi Amir Temurning faoliyati qisqacha bayon etilgan. "Temur tuzuklari" bugungi kungacha o'zining qiymatini yo'qotmasdan kelmoqda.

Kalit so'zlar: "Temur tuzuklari", buyuk sarkarda, markazlashgan davlat, islohotlar, kengash, adolat

ABSTRACT

This article briefly describes the activities of the great commander, the founder of the centralized state Amir Temur, who has a worthy place in the history of our country. "Temur's rules" have not lost their value to this day.

Keywords: " Temur tuzuklari", the great commander, the centralized state, reforms, council, justice

"... Amir Temur bobomiz bilan hammamiz faxrlanamiz. Lekin, xolisona aytaylik, ulug' Sohibqironning "Tuzuklari"ni qancha askar o'qigan va harbiy mahorati haqida hamma ham yetarli bilimga egami? Vaholonki, bu ajodolarimizning g'alabalari, strategiya va taktikalarini dunyodagi ko'plab harbiy mакtab va akademiyalarda bugun ham o'rganishadi".

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**Sh.Mirziyoyev**

Tarixdan ma'lumki, mamlakatimiz qadimdan alloma-yu mutafakkirlar, olim-u fozillar diyori hisoblanadi. Bu hududdan jahon ilm-fani ravnaqiga o'zining munosib hissasini qo'shgan Abu Nasr Forobi, Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy singari qomusiy allomalar, Imom al-Buxoriy, Imom atTermizi, Imom Moturudiy, Burhoniddin Marg'inoniy kabi mutafakkirlar, To'maris, Shiroq, Spitamen, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo kabi mard va jasur sarkardalar yetishib chiqdi.

"O'zbekiston boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga ega. Biroq bizning eng katta boyligimiz – bu xalqimizning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir" [2-13].

Nafaqat Vatanimiz tarixida, balki dunyo ma'naviy-ma'rifiy hayotida o'chmas iz qoldirgan buyuk alloma va mutafakkirlar, sarkarda-yu qahramonlar bilan har qancha faxrlansak arziydi. Xalqimiz tarixning

har qanday murakkab sharoitlarida ham o‘zining bunyodkorlik, ma’rifatparvarlik qarashlariga sodiq qoldi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganlaridek: “Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o‘lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniylarini tiklash milliy o‘zlikni anglashni, ta’bir joiz bo‘lsa, milliy iftixorni tiklash va o‘stirish jarayonida g‘oyat muhim o‘rin tutadi” [3-140].

So‘nggi yillarda markazlashgan Amir Temur sultanati, uning o‘zbek davlatchiligi va madaniyatini rivojlantirishdagi o‘rni masalalariga oydinlik kiritilib, tarixchi, sharqshunos olimlarimiz ko‘plab birinchi manba ahamiyatidagi asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilib, nashr ettirdilar.

Davlatimizning siyosati va xalqimiz xohish-irodasiga asoslangan Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 29-dekabrda “Amir Temur tavalludining 660-yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori, 1995-yil 26-dekabrda esa birinchi Prezidentimizning “1996-yilni Amir Temur yili deb e’lon qilish to‘g‘risida”gi farmonlari qabul qilindi. 1996-yil martida “Temuriylar tarixi” davlat muzeyini tashkil qilish xususida, “Amir Temur” ordenini ta’sis etish to‘g‘risida farmonlar qabul qilindi.

YUNESKO qarori asosida Amir Temur tavalludining 660-yilligi butun dunyoda keng nishonlandi. 1996-yil aprelida shu tashkilotning Parijdagi bosh qarorgohida “Temuriylar davrida fan, madaniyat va ta’lim ravnaqi” mavzuida ilmiy konferensiya o‘tkazilib, Buyuk davlat arbobining tarixdagi o‘rniga yuksak baho berildi [5-5].

“Sohibqiron Amir Temur shaxsi uning ajdodlari bo‘lmish faqat bizning emas, balki mintaqamizdagи barcha xalqlarning, butun ma’rifiy insoniyatning boyligidir”, degan edi birinchi Prezidentimiz [3-141].

Amir Temur haqida fikr bildidar ekan birinchi Prezidentimiz yana shunday deydi: “Tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo‘lgan bu mumtoz siymo buyuk sultanat barpo etib, davlatchilik borasida o‘zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilmu fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma’naviyat rivojiga keng yo‘l ochdi” [4-45].

Zero, Amir Temurning bunyodkorlik salohiyatidan nafaqat bizning yurtimiz, balki ko‘plab boshqa shaharlar ham bahramand bo‘ldilar. Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqohlar qurishni, yo‘lovchi musofirlar uchun yo‘l ustiga rabotlar bino qilishni, daryolar ustiga ko‘priklar qurishni buyurganligi haqida ma’lumotlar mavjud [982].

Jumladan, mo‘g‘ullar tomonidan vayron qilingan Bag‘dod, Darband, Baylaqon kabi shaharlarni qayta tikladi. Shuningdek, Amir Temur tomonidan, Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag‘dodda madrasa, Turkistonda Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara bunyod ettirgan [8-178].

O‘rta Osiyo xalqlari, xususan, ajdodlarimizning qonun, davlat va siyosatga jiddiy munosabatda bo‘lganliklari zamirida insonni ulug‘lash, jamiyatning barcha qatlamlarini adolat bilan chulg‘ab, chinakam huquq asoslariga tayanadigan davlat yaratishdan iborat maqsad yotar edi. Shuning uchun ham ajdodlarimizga rahnamo bo‘lgan buyuk shaxslar davlatchilik borasidagi siyosi, huquqiy tartiblarini o‘rnatuvchi ko‘plab asarlar yaratganlar. Ular orasida Amir Temurning “Tuzuklari”da ifoda etilgan davlat masalalariga oid yo‘l-yo‘riqlar, qonunlar, tuzuklar alohida ahamiyatga ega. Buyuk davlat arbobining

davlatchilik siyosatida, u yaratgan boshqaruv tizimi hamda davlatchilik an'analari mohiyati zaminida muayyan bir jug'rofiy makon va jamiyatning turli imkoniyatlarini mahalliy xalq manfaatlari yo'lida yuzaga chiqaruvchi chinakam tashkilotchilik yotganini ko'ramiz.

O'zbek davlatchiligi tarixining muhim davri – Temur sultanati markazlashgan davlat edi. Saltanat quruvchisining fikricha, davlat bиринчи galda, mamlakatdagi barcha ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarini himoya qilishi; maslahat, kengash, tadbirkorlik, qonun-qoidalar vaadolat bilan qat'iy tartibda boshqarilishi kerak edi.

Shu bois ham Amir Temuring, 27 davlatni birlashtirgan Markazlashgan ulkan sultanati, tabiiyki, qonunlar to'plamlari asosida yaratilgan va unga qat'iy amal qilish yo'lga qo'yilgan bo'lishi kerak edi. Amir Temur turmush tajribalari asosida ishlab chiqqan va uning hukmi bilan qonun darajasiga ko'tarilgan qoidalar majmui bor ediki, ularni to'plam holiga keltirib, o'zidan keyingi vorislariga ham qonunlar tizimi, ham turmush tajribasi va maslahatlar tarzida qo'llanma qilib qoldirishi lozim edi.

Ana shu to'plam tarixiy asarlarda va turli tildagi tarjimalarga mos holda "Temur tuzuklari", "Tuzukot Temuriy", "Temuring aytganlari" va "Voqeoti Temuriy" – "Temuring boshidan kechirganlari", "Qissai Temur", "Malfuzoti Temuriy", "Temur Qissasi", "Zafar yo'li", "Zafarnoma", "Tarjimai hol", "Esdaliklar", "Tanziyomot" (yangi qonun-qoidalar, islohot), turkiy chig'atoy tilidan rus tiliga o'girilganda Malfuzot va

Tuzukot o'rniiga "Dastur ul amal" nomlari bilan mashhurdir [6-7].

"Temur tuzuklari"ning fanda qayd etilgan ilk nusxasi eski o'zbek tilida bitilgani ma'lum. Asar O'rta Osiyolik Mir Abu Tolib Husayniy al-Ariziy at-Turbatiy tomonidan 1610-yili usmoniy turk hokimlaridan biri – Yaman hokimi Ja'far poshoning topshirig'i bilan fors tiliga tarjima qilinadi va dunyoga "Tuzuki Temuriy" nomi bilan tarqaldi. Bizga uning fors tilidagi nusxasi va fors tilidan o'zbek tiliga tarjimasining uch nusxasi yetib kelgan. Eng to'liq nusxasi "Malfuzot-i Temuriy" deb nomlangan va u Rossiyaning Sankt-Petrburg shahridagi Salkitov-Shchedrin nomli kutubxonasida saqlanmoqda [8170].

Shunday qilib, "Tuzuklar" O'zbekiston davlatchligi tarixi o'rni haqida eng ko'p fikr, baholar bildirilib, o'z boshidan turli davrlarda turlicha munosabatni kechirgan tarixiy manbadir. U quyidagi xulosalarga asoslanadi:

- 1) "Tuzuklar" - haqiqiy tarixiy manba va dunyoviy qonun-qoidalarni o'zida mustahkamlagan huquqiy manba;
- 2) "Tuzuklar" Amir Temur davrida uning o'z qo'li bilan yoki devonida yaratilgan, uning o'zi bir necha marta ko'rib, tahrir qilgan;
- 3) "Tuzuklar" davlat tuzugi, uni boshqarish, mustahkamlash borasidagi huquqiy asoslarni belgilab beradigan, shariat, odat va qonunlariga tayangan tavsiya hamda qoidalardan iborat bo'lgan, u o'z davrining Konstitutsiyaviy qo'llanmasidir;
- 4) O'zbek davlatchiligi tarixida uning nihoyatda yuksak ahamiyati va o'rni beqiyosdir [6-12].

O‘rta Osiyo xalqlari, xususan, ajdodlarimizning qonun, davlat va siyosatga jiddiy munosabatda bo‘lganliklari zamirida insonni ulug‘lash, jamiyatning barcha qatlamlariniadolat bilan chulg‘ab, chinakam huquq asoslariga tayanadigan davlat yaratishdan iborat maqsad yotar edi. Shuning uchun ham ajdodlarimizga rahnamo bo‘lgan buyuk shaxslar davlatchilik borasidagi siyosi, huquqiy tartiblarini o‘rnaturuvchi ko‘plab asarlar yaratganlar. Ular orasida Amir Temurning “Tuzuklari”da ifoda etilgan davlat masalalariga oid yo‘l-yo‘riqlar, qonunlar, tuzuklar alohida ahamiyatga ega. Buyuk davlat arbobining davlatchilik siyosatida, u yaratgan boshqaruv tizimi hamda davlatchilik an’analari mohiyati zaminida muayyan bir jug‘rofiy makon va jamiyatning turli imkoniyatlarini mahalliy xalq manfaatlari yo‘lida yuzaga chiqaruvchi chinakam tashkilotchilik yotganini ko‘ramiz.

Konstitutsiyamizning 18-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo‘yiladi hamda ijtimoiyadolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart” deya alohida keltirilgan[1-9]. “Temur tuzuklari”da esa: “Qaysi mamlakatni zabit etgan bo‘lsam, o’sha yerning obro‘-e’tiborlik kishilarini aziz tutdim; sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixiga ta’zim bajo keltirdim va hurmatladim; o’sha viloyatlarning ulug‘larini og‘a-inilarimdek, yoshlari va bolalarini bo‘lsa, o‘z farzandlarimdek ko‘rdim. ...Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo‘lini to‘sdim”, deya ta’kidlanadi [4-76].

Amir Temur davlatining markaziy va mahalliy boshqaruv organlari tuzilishi, ularning o‘zaro bog‘liqligi, bir-biriga bo‘ysunadigan va bo‘ysunmaydigan idoralar, ularning siyosatda muvofiqlashtirilishi, davlat, jamiyat va shaxs manfaatlari uyg‘unligining ta’milanishi, ularning yechimlari masalalari bugun ham o‘z ahamiyatini va mohiyatini saqlab qolgan.

Sohibqiron davlat ishlarini to‘ra va tuzukka asoslanib boshqardi. To‘ra va tuzukka tayanib, saltanatda o‘z martaba va maqomini mustahkam saqlab turdi. “O‘z tajribamda ko‘rib bildimki, davlat agar dinu tartib asosida qurilmas, to‘ra-tuzukka bog‘lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo‘qoladi”, deb uqtiriladi “Temur tuzuklari”da [5-79].

Amir Temur davridagi “devon”, “vazir”, “hokim”, “g‘aznachi” kabi mansab va unvonlar bugun ham davlat boshqaruv tizimida alohida institutlar sifatida shakllantirilgan. Shuningdek, mamlakatning viloyat va tumanlarga bo‘linishi ham tarixiy asoslariga ega. Bugungi qonun chiqaruvchi organ – “Qurultoy” siyosiy institutining taraqqiy etgan va rivojlangan shaklidir.

Mehribonlik, xokisorlik, ochiq yuzlilik, qat’iyat, haqiqatgo‘ylik kabi fazilatlar Amir Temur yutuqlarining kalitlaridandir. Ezgulik dushmanni ham do‘stga aylantirishi haqida u bunday o‘git beradi: “Davlatim va saltanatim quyoshi ko‘tarilib kelayotgan vaqtda mena iltijo qilib kelgan yaxshi-yomon odamlar, xoh yaxshilik, xoh yomonlik qilgan bo‘lsin, saltanat taxtiga o‘tirganidan keyin ularni xayr-ehsonlarim bilan xijolatga qo‘ydim... Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroq bo‘lishga intildim” [5-89].

Sohibqiron sadoqat, qat’iyat vaadolatparvarlik kabi fazilatlarni ulug’lagan. Ikkiyuzlamachilik, munofiqlik kabi razil odatlarga nafrat ko‘zi bilan qaragan. “Tuzuklar”da bunday hikoya qilinadi: “Tajribamda ko‘rdimki, aqli dushman johilu nodon do‘stdan yaxshiroq ekan. Chunonchi, Amir Qazag‘anning nabirasi amir Husayn nodon do‘stlardan edi” [5-131]. Amir Husayn Amir Temurning muvaffaqiyatlariga egalik qilish uchun o‘zini go‘yo do‘st qilib ko‘rsatadi. Shunday bo‘lsa-da, Sohibqiron uni ko‘p bora kechirib yuboradi.

Shuningdek, “Tuzuklar”da shunday o‘qiymiz: “Sulton har narsadaadolatparvar bo‘lsin, qoshida insofli, adolatli vazirlar tutsin, toki podshoh zulm qilgudek bo‘lsa, odil vazir uning chorasini topsin” [5-96].

Xalqqa doim mehr-muruvvatli bo‘lgan bu zotadolat va haqiqat uchun kurashdi, sultanatni ham ana shu mustahkam asosga qurdi: “... g‘arazgo‘y, nafsi buzuq kimsalarning tuhmati bilan katta va kichik shaharlar aholisidan hech kimni jazolamasinlar. Faqat (birovning) gunohi to‘rt kishining guvohlik berishi bilan isbotlansa, gunohiga yarasha jazolasinlar” [5-138]. Ibn Arabshoh “Temur tarixida taqdir ajoyibotlari” asarida bunday ma‘lumotni keltiradi: “U hazil-mazax va yolg‘onni yoqtirmas, o‘yingayu ko‘ngilxushlikka maylsiz, garchi o‘ziga ozor yetadigan biron narsa bo‘lsa ham, sadoqat unga yoqar edi... Jasoratlilarni, dovyurak va mardlarni yoqtirar edi. U xatosiz fikrlovchi, ajoyib farosatli, mislsiz baxtli, ulug‘vorligi o‘ziga muvofiq, qat’iy azm bilan so‘zlovchi, boshiga kulfat tushganida ham haqni so‘zlovchi kishi edi”.

Xushmuomalalik, sabr-matonatlilik, odillik kabi sifatlarni o‘zida mujassam qilgan Sohibqiron boshqa amaldorlardan ham shunday fazilatlarni talab qilgan. Masalan, vazirlik mansabi beriladigan kishi xushmuomala, tinchliksevar, xalqparvar va aqlfarosatli bo‘lmog‘i kerak edi. Amir Temur hasadchi, gina-kek saqllovchi, qora niyatli, g‘iybatchi, zulmkor, razil, xulqi buzuq kishilarni nihoyatda yomon ko‘rgan, ularni hatto navkarlikka ham olmagan. Jamiyatda bir qator islohotlar o‘tkazib, ko‘pgina buzuq odatlarga barham bergen.

Amir Temur o‘zining siyosatini amalga oshirishda, davlatni boshqarishda ulamolar, ilm-fan ahllari va yuqorida tabaqalar vakillariga qattiq tayangan. Buni o‘zining olim-u ulamolar bilan suhabatlaridan birida so‘zlagan nutqidan ham ko‘rishimiz mumkin: “Fan va dinning mashhur kishilari o‘z maslahatlari bilan podsholarga yordam berib kelganlar. Sizlar esa menga nisbatan bunday qilmayapsizlar. Mening maqsadim mamlakatdaadolat o‘rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni quchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir” [6-41].

Amir Temurning mardligi, jasorati ayniqsa, bunyodkorlik salohiyati barcha xalq va millatlar tomonidan tan olingan xislatlaridan biridir. Temur saltaniga elchi sifatida tashrif buyurgan Klavixoning esdaliklari haqida Lyusen Keren shunday yozadi: “Yo‘lyo‘lakay ular Amir Temurning vatani bo‘lmish Kesh shahrini ziyyarat qildilar, uning darvozasi peshtoqiga “Qudratimizga shubha qiladigan bo‘lsang, biz qurdirgan binolarga boq” degan mag‘rur shior bitilgan “Oqsaroy”ni tomosha qildilar [7-236].

Xulosa qilib aytganda, biz boy madaniy merosga ega bo‘lgan qadimiy xalqmiz. O‘z Vatani tarixini bilish har bir o‘sib-unib kelayotga yosh avlod vakili uchun suv va havodek zarur. Tarixiy xotira insonni

ona yurt xizmatiga qat’iy bel bog‘lash, uning sarhadlarini har qanday yovuz kuchlardan, g‘animlardan himoyalash, kerak bo‘lsa jon fido qilishga chorlaydi. “Temur tuzuklari”da ham hech qachon eskirmaydigan, inson ma’naviyati uchun bugun ham ma’naviy oziq bo‘ladigan hikmatli fikrlarning ahamiyati hech qachon yo‘qolmaydi. Ushbu asarda keltirilgan fikrlar, mulohazalar, yosh avlod tarbiyasida, uning ma’naviy qiyofasini shakllantirishda, yoshlarimizni jismoniy jihatdan baquvvat, ma’naviy yetuk, o‘z Vatanini ko‘z qorachig‘iday asraydigan, mard va jasur farzandlar sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega ekanligini unutmasligimiz zarur. Bugungi mustaqil taraqqiyot yo‘limiz ham o‘ziga xos buyuk davlatchiligidan tarixi va an’analari bilan uyg‘unlashgandir. Poydevori mustahkam imorat asrlar davomida, ming yillar qad rostlab turadi. Ildizi baquvvat, tarixiy xotirasi boqiy xalq hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2019.
2. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: “O‘zbekiston”, 2016.
3. Islom Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O‘zbekiston”, 1997.
4. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2016.
5. Temur tuzuklari. –T.: “Hilol mediya”, 2018.
6. M.Sherov, B.Xaitov. Amir Temur tuzuklariga harbiy-siyosiy sharh. (Monografiya), Chirchiq, 2021.
7. Lyusen Keren. Amir Temur sultanati. Fransuz tilidan B.Ermatov tarjimasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2020.
8. M.Rahimov, A.Zamonov. O‘zbekiston tarixi. –T.: “Fan”, 2019.
9. Ubaydulla Uvatov. Sohibqiron arab muarrixlari nigohida. –T.: “Sharq”, 1997.
10. Shermamatovich, M., Yalgashevich, K., & Narkulovich, S. (2021). The development of physical preparedness of student young people. Psychology and Education Journal, 58(1), 2699-2704.
11. Муродов М., & Хусаинов, Ш. (2022). РОЛЬ ЛЕЧЕБНОЙ ФИЗКУЛЬТУРЫ В ВОССТАНОВЛЕНИИ. Журнал кардиореспираторных исследований, 1(SI-1), 68–69. <https://doi.org/10.26739.2181-0974-2020-SI-1-22>